

FONETIK BIRLIKLAR – SHE'RIY MATNDA POETIK VOSITA SIFATIDA
(Xurshid Davron she'riyati misolida)

Qurbonova Muharram Jurabekovna,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti doktoranti
qurbonovamuharram@gmail.com

Annotatsiya. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikning birga o'rganiladigan sohasi bu lingvopoetika hisoblanib, qadim davrlardan buyon tadqiq qilinib kelinmoqda. Bugungi kunda ham jahon va o'zbek tilshunoslarining diqqatini tortgan, hamon o'rganish markazida bo'lib kelayotgan bu soha ahamiyatga ega sohalardan hisoblanadi. XIX asrning o'rtalariga kelib bu jarayon boshlangan bo'lsa, keyinchalik tilshunos olimlarimizning tashabbuslari bilan bu tadqiqot ko'lami birmuncha kengaydi. Tilning fonetik tabiatini, uning lingvopoetikasi va uslubiylatini o'rganish uning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq jarayondir. Badiiy asarlarni tahlil qilish va ularni o'rganish ona tilimizni o'rganish demakdir. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bu chuqur tarixga ega bo'lgan tilimizga e'tiborning oshishidan dalolatdir.

Kalit so'zlar. Lingvopoetika, fonetika, tovush o'zgarishi, tovush tushishi, tovush uyg'unigi, dissimilyatsiya, qofiya.

ŞİİR METİNDE ŞİİR BİR ARAÇ OLARAK FONETİK BİRİMLER
(Hürşid Devran şîir örneđi)

Kurbanova Muharrem Jurabekovna,
Özbekistan-Finlandiya pedagođi enstitüsü doktora öđrencisi

Özet. Dilbilim, eski çağlardan beri üzerinde çalışılan dilbilim ve edebiyat bilimlerinin bir dalı olarak kabul edilmektedir. Günümüzde dünya ve Özbek dilbilimcilerinin ilgisini çeken ve halen çalışmaların merkezinde yer alan bu alan, en önemli alanlardan biri olarak kabul edilmektedir. Bu süreç 19. yüzyılın ortalarında başlamış, daha sonra dilbilimcilerimizin girişimleriyle bu araştırmanın kapsamı bir miktar genişletilmiştir. Dilin fonetik yapısını, dilbilimselliğini ve metodolojisini incelemek onun tarihsel gelişimiyle ilgili bir süreçtir. Sanat eserlerini incelemek ve incelemek ana dilimizi öğrenmek demektir. Bunun, köklü bir tarihe sahip olan dilimize olan ilginin arttığına bir göstergesi olduğu ortadadır.

Anahtar kelimeler. Dilbilim, fonetik, ses değişimi, ses düşüşü, ses uyumu, benzeşme, kafiye.

ФОНЕТИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ - КАК ПОЭТИЧЕСКИЙ СРЕДСТВО
В ПОЭЗИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ
(На примере поэзии Хуршида Даврана)

Курбанова Мухаррам Джурабековна,
докторант Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. Языкознание считается отраслью языкознания и литературоведения, которая изучается с древних времен. Сегодня эта область, привлекающая внимание мировых и узбекских лингвистов и до сих пор находящаяся в центре исследований, считается одной из важнейших. Этот процесс начался в середине XIX века, а позднее, благодаря инициативам наших лингвистов, рамки этих исследований несколько расширились. Изучение фонетической природы языка, его лингвопоэтики и методологии представляет собой

процесс, связанный с его историческим развитием. Анализировать и изучать произведения искусства – значит изучать родной язык. Само собой разумеется, что это признак возрастающего внимания к нашему языку, имеющему глубокую историю.

Ключевые слова. Лингвопоэтика, фонетика, изменение звука, падение звука, звуковая гармония, диссимилиция, рифма.

PHONETIC UNITS – AS A POETICAL MEANS IN POETRY (On the example of the poetry of the Khurshid Davran)

Kurbanova Muharram Jurabekovna,

PhD student of Uzbek-Finnish pedagogical institute

Abstract. Linguopoetics is a field of linguistics and literary studies that has been studied together since ancient times. Today, this field, which has attracted the attention of world and Uzbek linguists and is still at the center of study, is considered one of the important fields. This process began in the middle of the 19th century, but later, with the initiatives of our linguists, the scope of this research expanded somewhat. The study of the phonetic nature of a language, its linguopoetics and methodology is a process related to its historical development. Analyzing and studying literary works means studying our native language. It is obvious that this is an indication of increased attention to our language, which has a deep history.

Keywords. Linguopoetics, phonetics, sound change, sound fall, sound harmony, dissimilation, rhyme

O'zbek tilshunosligida fonetik sath va uning lingvopoetikasini o'rganish XX asrning 40-50-yillarida A.G'ulomov, X.Doniyorov, R.Qo'ng'urov, B.Yo'ldoshevlar tomonidan o'rta tashlangan bo'lsa, bu boradagi ilmiy ishlar A.Haydarovning "Konnotativ ma'noning fonetik vositalarda ifodalanishi", A.Abdullayevning "Hozirgi o'zbek tilida ma'no kuchaytirishning fonetik va morfologik usuli", Z.Qobilovning "O'zbek tilining fonosemantik vositalari" dissertatsiyalarida, M.Mirtojiyevning "O'zbek tili fonetikasi", S.Umirovning "O'zbek she'riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik" monografiyalarida amalga oshirilgan.

Shoir til imkoniyatlaridan, jumladan fonetik vositalar, tovush o'zgarishi hodisalari, unli va undosh tovushlar uyg'unligi va hokazolardan unumli foydalanadi. Ijodkorning bu imkoniyatlardan qanday foydalanishi tahlil qilish bilan mazkur ijodkorning ijodiy tafakkuri va til boyligini yuzaga chiqishini ham o'rganish mumkin.

Masalan, tovush o'zgarishi hodisalaridan **tovush tushishi** (so'z o'zagidagi yoki unga qo'shilgan qo'shimchalar tarkibidagi ayrim tovushlarning ma'lum fonetik qurshov yoki pozitsiya ta'sirida talaffuz etilmasligi) [3.75] shoir she'riyatida ko'p uchraydi:

Ular dildan suyar yolg'iz *olloni*,

Mening dilimdayam shu mehr bordek [2.100].

Shuningdek, kam uchrovchi tovushning kombinator-pozitsion o'zgarishi – **dissimilyatsiya** (Og'zaki nutqda tovushlar doimo bir-biriga o'xshayvermasdan, ba'zan uning aksi bo'ladi. Ayrim paytda talaffuzda ikki o'xshash tovush bir joyda yoki bir so'zda kelgan vaqtda biri noo'xshash tovushga aylanib ham qoladi) [7.67] hodisasidan ham unumli foydalaniladi:

Shopmo'ylovli badmast *sallotlar*

Tinmay quvib kelar ortimdan –

"Devon" nimasi, jonni berurman...

Yoki aynan "sallot"ning "sollot" varianti ham uchraydi:

Shoirlar otgan jallodlar

Bugun yashar nafaqasin yeb.

O'lgan shohga sodiq *sollotlar*

Xat bitishar: "Biz tayyormiz" deb [2.138].

Ijodkor dissimilyatsiya orqali avvalo, o'zbek tiliga xos bo'lgan rang-baranglik, tovush o'zgarishi hodisalari, bu orqali esa she'riyatga vazn va ritmning tengligi, qofiya ohangdorligini ta'minlashni ko'zda tutgan.

Fonetika bo'limida bo'g'in (bir havo zarbi bilan aytilgan tovush yoki tovushlar yig'indisidir)[3.79] va uning turlari, bo'g'in ko'chirish qoidalarini o'rganamiz. Ular she'riy matnda ham o'ziga xos uslubiy vazifani bajarishi mumkin. Masalan:

Kar-lu-sha – deb chaqirar

Qizcham har kuni tongda

Bog'chasiga ketayotganda...[2.96]

Ijodkor bo'g'inga ajratib talaffuz qilish orqali qizaloqqa xos talaffuz ohangini, erkalikni va qushchaga bo'lgan mehrni aks etishda foydalangan. Agar shunchaki oddiy talaffuz qilinganda badiiy tasbir yetakchilikka chiqa olmas edi.

Yoki unli va undosh tovushlar she'riy matn tarkibida takrorning bir ko'rinishi bo'lib, alliteratsiya va assonans kabi fonetik usullarni yuzaga keltiradi. "She'riyatda esa, asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi" [1.79].

Bilamizki, alliteratsiya va assonans she'rning butun matni davomida uchraydi, ammo shoir bunday shaklbozlikka e'tibor qilmagan holda, faqat ma'lum gap tarkibidagina tovushlarni uyg'unlashtiradi:

Bog'im bo'm-bo'sh, bo'm-bo'shdir samo [2.82].

O'lim emas o'dirgan,

O'ldirguvchi uyqudir! [2.118].

Aynan matn davomida takrorlanmagan unli va undoshlar uyg'unligi mantiqiy urg'uni matn tarkibidagi ma'lum bir gapga tegishli ekanligini ifodalashga, bo'rttirib talaffuz qilishga va tinglovchiga yetkazishga yordam beradi. Bu bilan takrorning uslubiy vazifasi ravshanlashadi, shakl va mazmun moslashadi.

Xulosa qilib aytganda, ijodkor eng ko'p qo'llagan fonetik sathdagi uslubiy o'ziga xosliklar va ularning she'riy matndagi vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

Tovush o'zgarish hodisalari (tovush tushishi, dissimilyatsiya)	Qofiya saqlanishi
Bo'g'in	Pozitsiyani ochib berishda
Sintaktik figuralar (alliteratsiya, assonans)	Matn tarkibidagi aynan bir gapga urg'u berish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Butunbayeva T. Zamonaviy nazmiy diskursda individuallikni ta'minlovchi lisoniy vositalar(A'zam O'ktam va Minhojiddin Mirzo she'riyati misolida): Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri... (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2021. – 7 b.
2. Davron X. Bahordan bir kun oldin. – Toshkent: Sharq, 1997. – 100 b.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – 75 b.
4. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand. 1994. – 59 b.
5. Karimov S. Badiiy matnning uslubiy alomatlari. – Samarqand: SamDU, 1992. – 47 b.
6. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. – Samarqand: Zarafshon, 1992. – 122 b.
7. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B.67.
8. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 148 b.
9. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016, – 315 b.
10. Azizovna Y.S. [Study of folktale in literature and its relation to the epic genre](https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/7250/19705/65b7e8e0c2065_20S.Central%20European%20Management%20Journal.pdf). Central European Management Journal 31 (No. 03 (2023)), 476-482

https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/7250/19705/65b7e8e0c2065_20S.Central%20European%20Management%20Journal.pdf

11. Buriyeva, F. (2024). Faxriyor ijodiy olami: individual uslub va poetik mahoratning shakllanish tadriji. *news of the nuuz*, 1(1.6. 1), 303-305.